

## KARL POPPER VA TOMAS KUN FALSAFASI G'YOYALARINING QIYOSIY TAHLILI

Sherboev Muxriddin Azimmurod o'g'li

*Toshkent davlat stomatologiya instituti*

*ijtimoiy fanlar bioetika kursi bilan kafedrasi assistenti,*

*O'zbekiston, Toshkent. Elektron pochta: msherboev@bk.ru*

**Annotatsiya:** *Falsafa tarixida hozirgi zamон falsafasi o'z o'rni va fan taraqqiyotiga qo'shgan hissasi bilan alohida ahamiyatga ega. Bu davrdagi fan falsafasiga taalluqli barcha qarashlar ilmiy bilish taraqqiyotiga o'ziga xos hissa qo'shgan. Bu davrda rivojlangan fan falsafasi haqidagi ta'limotlar rivojiga e'tibor beradigan bo'lsak, Tomas Kun va Karl Popper ijodi alohida ajralib turadi. Biz ushbu maqolada Tomas Kun va K.Popper qarashlarini qiyosiy jihatdan tavsiflashga harakat qilamiz.*

**Аннаутатсия:** *В истории философии современная философия имеет особое значение благодаря своей роли и вкладу в развитие науки. Все взгляды, связанные с философией науки в этот период, внесли уникальный вклад в развитие научного знания. Если обратить внимание на развитие разработанных в этот период учений о философии науки, то выделяются работы Томаса Куна и Карла Поппера. В этой статье мы попытаемся сравнить взгляды Томаса Куна и К. Поппера.*

**Annautation:** *In the history of philosophy, modern philosophy is of special importance due to its role and contribution to the development of science. All views related to the philosophy of science in this period made a unique contribution to the development of scientific knowledge. If we pay attention to the development of the teachings about the philosophy of science developed during this period, the works of Thomas Kuhn and Karl Popper stand out. In this article, we will try to compare the views of Thomas Kuhn and K. Popper.*

**Kalit so'zlar:** *bilish, fan, falsafa, jamiyat, davlat, taraqqiyot, ilmiylik, inqilob, paradigm, struktura.*

**Ключевые слова:** *знание, наука, философия, общество, государство, развитие, научность, революция, парадигма, структура.*

**Key words:** *knowledge, science, philosophy, society, state, development, scientificity, revolution, paradigm, structure.*

Tomas Kun fan falsafasi tarixida o'zining "Ilmiy inqilob sturukturasi" nomli asari orqali chuqur iz qoldirdi. Kun va Popper bir davrda yashagan faylasuflar bo'lib ayrim qrashlarida o'xshashlik va ayrimlarida farqlar ko'zga

tashlanadi. Tomas Kun ijodiga nazar solsak, fan taraqqiyotida eng katta asos sifatida paradigma tushunchasi qo'yiladi. Paradigma so'zi o'zbekchaga tarjima qilinganda o'rnak, namuna degan ma'noni bildiradi. Fan taraqqiyotidagi nazariyalar ichida saralangan alohida bir qarash va yondashuv boshqa nazariyalar uchun o'rnak namuna vazifasini bajaradi. Bu qoida bo'yicha olim kishi tadqiqotchilik jarayoni davomida boshqa bir tadqiqotdan namuna sifatida foydalanadi. Qisqacha qilib aytganda, belgilangan yo'l orqali olimning ilmiy tadqiqoti samarali bo'ladi. Bu qarash esa ko'pchilik olimlar tomonidan tanqid qilingan. Chunki ayni bir nazariya barcha nazariyalar uchun asos bo'lib xizmat qilolmasligi ayni haqiqat edi.

Tomas Kun va Pol Feerabendlarning falsafiy va metodologik pozitsiyalari K.Popperning fan falsafasi uchun ayniqla dolzarb ekanligini ham ta'kidlash lozim. Chunki, T.Kun postpozitivizmdagi tarixiy-evolyusion oqim yetakchilaridan biri bo'lgan va uning qarashlari Popperning tarixiylik qashshoqligi nazariyasiga asos bo'lgan. U ilmiy inqiloblar konsepsiyasini Popperning mantiqiy pozitivizmi va tanqidiy ratsionalizmi bilan polemikalar asosida shakllantirdi. P. Feerabend ham tanqidiy ratsionalizmga qarshi chiqdi, lekin metodologik plyuralizm nuqtai nazaridan "anarkistik metodologiya" tamoyillarini himoya qildi. Tanqidiy ratsionalizmning Feyrabend tomonidan tanqid qilinishiga sabab shu ediki, Feyrabend aqlning qobiliyatlariga butkul ishongan bo'lsa, Popper qarashlari buning aksi edi. Inson ongi va bilimi cheklangan va bu esa uning haqiqatga erisha olmasligiga asos bo'ladi.

Agar T.Kun va I.Lakatos pozitsiyalarini solishtiradigan bo'lsak, unda birinchi farq "paradigmalar" bo'lsa, ikkinchisi oqilona "tadqiqot dasturlari" hisoblanadi. T.Kun "normal fan"ning asosiy xususiyatini fanning turg'un davrlarini tushuntiruvchi dogmatik munosabatda ko'rsa, I.Lakatos gnoseologiyaga me'yoriy yondashuvni ma'qul ko'radi. U fanning uzluksizligiga "Popper pozitsiyasi" orqali qaraydi. Kun ta'limotidan farqli o'laroq Popper va Lakatos ta'limotlari fanning statik qiyofasini tasvirladi. Uning fikricha, fandagi uzluksizlik ilmiy taraqqiyotning umumiyligini qiyofasini belgilab beradi.

Popperning metafizik tadqiqot dasturiga nisbatan tanqidiy munosabati va uning o'rnini bosadigan muqobil variant izlashi insonning va fanning ratsionalligini tushunishga yordam beradi. Bundan tashqari "Oddiy olimlar"ni, tanqidsiz ishlaydigan olimlarni o'tmishdoshlarini sezmasdan ko'r-ko'rona dasturlar tuzish xavfidan saqlaydi. Shunday qilib, K. Popper Kunning normal bilimini tanqid qiladi. U oqilona tanqid natijasini ilmiy inqilobda, fanning tarixiy rivojlanishida eng muhim deb hisoblagan faoliyatda ko'radi.

Ilmiy ratsionallik, umuman olganda, ratsionallik K.Popper tomonidan ilmiy aks ettirishning tanqidiyligi, har qanday ilmiy takliflarni rad etish

qobiliyati sifatida talqin etiladi. Uning fikriga ko'ra, fan har qanday kognitiv an'anani refleksli tushunish – bilish oqibatlarini tanqidiy baholash bilan bog'liq va kognitiv faoliyatni doimiy ravishda takomillashtirishga qaratilgan tushunish shaklidir. Ammo bunda ratsionallik tushunchasi nafaqat fanga, balki har qanday kognitiv tizimga (sehr, din, afsona, san'at va boshqalar) nisbatan qo'llanilishi mumkin. Bu faylasufning an'anaviy ilmiy ratsionallik tushunchasidan chetga chiqib, o'ziga qarshi tanqidni bilvosita kutganini ko'rsatadi. Popper har qanday nazariyani tanqid qilish orqali uning ilmiyligini asoslashga harakat qiladi.

J. Xittangadi shunday deb yozadi: "T.Kunning olimlarning ko'pincha ba'zi fundamental g'oyalarga nisbatan tanqidiy munosabatda bo'lmasligi haqidagi qarashlari Popperning yuqoridagi fikrlarini noaniq qiladi" [1.51]. T.Kun falsafasi bir qadar Popperga yaqin bo'lishi tabiiy edi. Bunga asosiy sabab makon va zamon, hamda yangi zamonaviy muammolarning taqozosi edi. Tarixiy bilimlar evolyusiyasiga e'tibor bersak, har bir ilmiy bilishga oid qarashlar, o'zgarib borganligini kuzatamiz. Bu esa, falsafiy bilimlar evolyusiyasining turli bosqichlarida ratsionallik g'oyasi ma'lum tarixiy shakllarni oldi, ular ilmiy-texnik sivilizatsiya rivojlanishining o'ziga xos xususiyatlari, mavjud fikrlash tarzining murakkabligi va qarama-qarshiliklari bilan bog'liq sivilizatsiya sabab bo'ldi. Albatta har qanday nazariya jamiyat ehtiyoji asosida vujudga keladi va har bir nazariya ta'rixiy evolyusiya natijasi hisoblanadi.

Tomas Kun falsafadagi nazariyalar o'rtasidagi munozaralarni konvensiya asosida vujudga kelishiga sabab bo'ladi. Munozaralar konvensiya sifatida paydo bo'ladi va an'ana sifatida davom etadi. Bu Popper tabirida esa har bir nazariyaning asosi murosasiz munozara natijasi edi.

K.Popperning fikricha, bilish taraqqiyotining asosiy sharti – barcha mavjud an'analarni muhokama qilish, ularning shart-sharoitlari, imkoniyatlarini anglash, muayyan muammoli vaziyatda ijobiy va salbiy tomonlarni aniqlash, o'zaro solishtirish va o'zaro almashishning tanqidiy muhokama jarayonida oqilona an'alarining mavjudligidir.

T.Kun ilmiy jarayonlarni ilmiy ratsionallik yo'lida ilmiy jamoalarning muvafaqqiyat uchun raqobat kurashi sifatida ko'rsatadi. U "normal" va "inqilobiy" fanni ajratib tushuntirdi va oqilona muhokamani olimning xatti-harakatlari va qobiliyatlarini tanqid qilish bilan bog'laydi. Lekin, jamoalarning faoliyati asoslarini tanqid qilish bilan bog'liq emas, deydi. U K.Popperning metodologik konsepsiyasini mos ravishda ishlab chiqishga harakat qildi. Ammo fanning haqiqiy tarixi uning shakllanishi, o'sishi va o'zgarishida namoyon bo'ladi, degan dasturni Popperga qarshi qo'ydi. Uning fikricha, "empirik

bilimlarning o'sishi uchun eng to'g'ri strategiyani tanlagan tadqiqotchi oqilona harakat qiladi. Boshqa har qanday yo'nalish mantiqiy emas. Bu esa Popper qarshi chiqqan elita nazariyasiga qarama-qarshi turgan g'oya edi. "Zamonaviy burjua jamiyatidagi fan falsafasida postpozitivistik tendensiyalarga asoslangan neopozitivistik dasturni qayta ko'rib chiqish K. Popper belgilagan yo'nalish bo'ylab ketdi hamda Popperning tanqidi va skeptitsizmi tomonidan rag'batlantirildi. Lekin u kengroq ijtimoiy va madaniy-tarixiy kontekstlarga mos keladi"[2.33], – deb ta'kidlagan edi N.S.Avtonomov. Albatta, Popper ta'limoti Kun ta'limotini to'ldirgan zamonaviy qarash ekanligini ham ta'kidlaydi olim.

N.S.Avtonomov bu qarashlarni qayta ko'rib chiqishning asosiy nuqtalarini quydagicha izohlaydi: 1) tor tushunilgan empirizmga tayanishni rad etish va nazariy kontekstning, umumiy aqliy sxemalarning, dunyoning u yoki bu manzarasining ahamiyatini tan olish; 2) ilmiy bilimlarni tahlil qilish va ularning paydo bo'lishi, rivojlanishining tarixiy kontekstda statik qarash bo'yicha ko'rib chiqish; 3) konseptual asoslarni o'zgartirish va nazariya ichidagi sof mantiqiy-induktiv va deduktiv aloqalar doirasida olib boriladigan tahlildan eng ilmiy bilimlar va uning ijtimoiy madaniy konteksti o'rtaсидаги ко'п darajali o'zaro ta'sirlarni o'рганишга o'tish zarurligini ta'kidlash. Natijada kuzatish va talqin qilish, tekshirish va kashfiyot o'rtaсидаги neopozitivistik to'siqlar barbob bo'lmoqda, chunki kuzatishni izohlashdan, tekshirishni esa kashfiyotdan ajratib bo'lmaydi"[2.34].

K.Popperning tanqidiy ratsionalizmi zamirida bilish va uning o'sishi nazariyasi yotadi. Biroq, u nafaqat ilmiy haqiqatni izlashga, balki insoniyat jamiyatining boshqa har qanday sohasiga ham tegishlidir. Ratsional tanqidiy munozara mexanizmi chinakam ochiq jamiyat, ya'ni liberal jamiyat mavjudligi haqida gapirishga imkon beradi"[3.27-36].

K.Popperning gnoseologik qarashlari falsafiy dunyoqarashning umumiy tizimini tashkil qiladi va boshqa nazariy tuzilmalar uchun asos bo'lib xizmat qiladi. Professor V.A.Lektorskiy faylasufning sotsiologik qarashlari uning "Ilmiy tadqiqotlar mantig'i" asarida keltirilgan gnoseologik pozitsiyasining davomi ekanligini ta'kidlaydi. "Popperning gnoseologiyasi, uning fan falsafasi va ijtimoiy falsafasi, jumladan, siyosiy falsafasi o'rtaсидада chuqr bog'liqlik mavjud. Bu uning ijtimoiy falsafasini epistemologiyada ishlab chiqilgan g'oyalarning shunchaki qo'llanilishi sifatida taqdim etishi emas edi. Popperning fan falsafasiga uning ijtimoiy-siyosiy ideallarining ifodasi sifatida qarash ham emas. Popper falsafasining ikkala asosiy qismi ham bir ildizdan o'sib, bir-biri bilan o'zaro aloqada bo'lishini tushunish to'g'riroq. Bu umumiy ildiz ratsionallik tushunchasidir"[3.27-36].

Eksternalizm<sup>39</sup> vakillari fandagi innovatsiyalarning asosiy manbai jamiyatning ijtimoiy ehtiyojlari va madaniy resurslari, uning moddiy va ma’naviy salohiyati ekanligiga ishonch hosil qilishgan edi. Shuning uchun kognitiv qiziqish har doim ma’lum bir amaliy qiziqishlar uchun yopiq bo’ladi. Fan falsafasida eksternalistik dasturni amalga oshirishga eng kuchli urinish T.Kun, P.Feyrabend, M.Polanyi va boshqalar tomonidan amalga oshirilgan. Ularning umumiyligidagi o’xshash xususiyati shunda ediki, ijtimoiy munosabatlarda hamma vaqt hamma narsa ochiq aks ettirilmaydi. Bunga sabab bo’luvchi jamiyatning madaniy qadriyatlari yoki, siyosiy qadriyatlar tizimi bo’lishi mumkin.

Ilmiy bilimlar tizimini rivojlantirishning hozirgi bosqichida fan ichidagi va ijtimoiy-madaniy omillar o’rtasidagi munosabatlarga asoslangan intererizm va eksternalizm o’rtasidagi o’rta yo’l eng maqbuldir. Bunga ko’ra bilish ayni bir jamiyat kontekstida olinganda uning ham, ichki ham tashqi xususiyatlarini qabrab olish nazarda tutiladi.

1960 yilga kelib, Vena doirasi bilan nizolar hal etilgach, K. Popperning g’oyalari yangi rivojlanish bosqichini aks ettirdi. G. Skolimovskiy yangi raqiblar M.Polanyi va T.Kunni dastlab K.Popper asarlari ilhomlantirganligini ta’kidlaydi. Ular fanlarning tabiat haqidagi dastlabki taxminlarining bir qismi bilan o’rtoqlashdilar, biroq fanni sub’ektivlashtirishga urg’u qaratishdi. Endi bilimlarning o’sishi tabiiy hol sifatida qabul qilinib, fanning ratsionalligi va ob’ektivligi, fan va noilmiylik o’rtasidagi farqning qonuniyligi xavf ostida qoldi. Endigi savol bu farqni qanday qilish kerakligi emas, balki bunday farq haqiqatda mavjudmi yoki yo’qmi deyishda edi. Shuning uchun “K.Popper sub’ektivizm tahdididan qochish uchun o’zining yangi falsafasini, chindan ham yangi metafizikasini rivojlantiradi, natijada uning “uch dunyo” haqidagi ta’limoti vujudga keladi”[4.244].

Professor G.Skolimovskiy fikricha, M.Polanyi va T.Kun kitoblariga javoban K.Popper munosabatni o’z ishidagi metafizik burilish bilan bog’liq ekanligini ta’kidlagan. Bu qarash “Ilmiy tadqiqot mantig’i”ning 1982 yilda chop etilgan nashri bilan bog’liq. Unda G.Skolimovskiy tomonidan berilgan ko’plab savollarga javoblar mavjud. K.Popperning fikricha, metafizik davr va xolislik uchun kurash M.Polanyi va T.Kun kitoblari nashr etilishidan ancha oldin boshlangan. U 20-yillarda kvant mexanikasi va indeterminizm bilan qiziqdi. Sub’ektivizm tahdidi kvant mexanikasining Kopengagen talqini bilan bog’liq edi va N. Borning o’zi uning raqibi edi[5.280-291]. Shunday qilib, M.

<sup>39</sup> Eksternalizm falsafiy va uslubiy pozitsiya bo’lib, unda ilmiy bilim ko’p darajada tashqi sharoitlar, jumladan, ijtimoiy, tarixiy va siyosiy o’zaro ta’sirlar bilan belgilanadi.

Polanyining “tanqididan keyingi falsafasi” “aniqroq kasallikning faqat bitta alomati – fanlarning eng ob’ektivi – fizikaning erishgan yutug’idir”[6].

G.Skolimovskiy fikricha, P.Feerabend, T.Kun, I.Lakatos, M. Polanyi, Art. Toulminlar qarashlarini Popper dinamik dasturining aspektlari orqali ma’lum ma’noda davom ettirdi va xilma-xillikni rivojlantirdi. Lekin shu bilan birga, ular bu konsepsiyaning ayrim jihatlarini ishlab chiqishda ba’zan shu qadar uzoqqa borishdi, uning ba’zi qoidalarini radikallashtirdilarki, K.Popper o’zini boshqa dinamik fan tushunchalaridan himoya qilishni zarur deb hisobladi.

K.Popperning fikricha, M.Polanyidan boshqa sanab o’tilgan faylasuflarning hammasi uning shogirdlari bo’lgan yoki undan ta’sirlanganliklarini bir necha marta qayd etgan. “Men har doim o‘quvchilarimni g‘oyalarimni tanqid qilishga majburlaganman va ba’zilari u yoki bu holatda buni juda muvaffaqiyatli qilishgan, deb yozadi K.Popper. “U o’zini himoya qilish xususiyatiga ega ekanligini va mening fan haqidagi dinamik tushunchalarimning haddan tashqari radikal rivojlanishidan ham himoyalanganligini aytib o’tgan”[7].

Ba’zan u M.Polanyi va T.Kun tomonidan ilgari surilgan qarashlarga qarshi dalillarni ilgari surdi, lekin buni o’zini himoya qilish deb bo’lmaydi. Qolaversa, K.Popper o’z asarlarida sobiq shogirdi P.Feerabendning biron bir asariga e’tibor qaratganini eslamaydi. U dastavval falsafa tarixi va matematikada, keyinchalik esa metodologiya sohasida faoliyat yuritgan I.Lakatosni juda qadrlaydi va undan ko‘p bilimlarni o’rganganini tan oladi.

Yuqoridagilardan shuni xulosa qilishimiz mumkinki, K.Popper va T.Kun falsafasi eng umumiyligi va xususiy qarashlari bilan ajralib turadi. Jumladan, K.Popper va Kun qarashlarida eng farqli jihat Popper evolyusion fan falsafasi tarafdori bo’lsa, Kun statik fan falsafasining konservativ namoyondasi edi. Shu bilan birga Popper detirimizmni inkor qilsa, Kun ilmiy bilish jarayonida detirimizmni o’rni katta ekanligiga tayanadi. Popper fan falsafasini ijtimoiy jarayonlar bilan uzviy bog’liq holda takomillashtirish tarafdori bo’lsa, Kun fan falsafasini ayni bir fan doirasida rivojlanish nazariyasini ilgari suradi. Popper qarashlari Tomas Kun qarashlariga nisbatan qarama-qarshi bo’lsada ularning negizi bir bo’lgan. Har ikkala olimning qarashlarida ham pozitivizm bilan bog’liq muammolar aks etgan.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO’YXATI:**

1. Касавин И.Т., Сокулер З.А. Рациональность в познании. Критический очерк. М., 1989. С. 51.

2. Автономова Н.С. Рассудок, разум, рациональность. М., 1988. С. 33.
3. Лекторский В.А. Рациональность, критицизм и принципы либерализма (взаимосвязь социальной философии и эпистемологии Поппера) // Вопросы философии. 1995. № 10. С. 27- 36.
4. Фримен Ю., Сколимовский Г. Поиск объективности у Пирса и Поппера // Эволюционная эпистемология и логика социальных наук: Карл Поппер и его критики. М., 2000. С. 244.
5. ПопнерК.Р. Фримен и Сколимовский о нирсовских предвосхищениях Поппера // Эволюционная эпистемология и логика социальных наук: Карл Поппер и его критики, М. 2000, С. 280-291.
6. Chinpo'lat Minasidinovich Qurbanov, Sharif Safarovich Shaniyazov, Jaloliddin Baxromovich Nurfayziev, Muxriddin Azimmurod-o'g'li Sherboboev. (2020). O'RTA OSIYODA 19-ASR IKKINCHI YARIMIDAGI RUS IMPERARIYASINING GEOSIYOSIY VA IQTISODIY MANFATLARI. *PalArchning Misr arxeologiyasi jurnali / Egyptology*, 17(7), 8521-8546. <https://archives.palarch.nl/index.php/jae/article/view/3636> dan olindi
7. Muxriddin Azimmurod O'g'li Sherboboev TANIKIY RATSIONALIZM ILMIY BILISHNING USLUBIY VAROITI SOSITIDA // Pedagogik fanlar bo'yicha akademik tadqiqotlar. 2021. №8. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/critical-rationalism-as-a-methodological-means-of-scientific-knowledge> (ma'lumotlar obrashcheniya: 08.03.2023).
8. A'zamxonov S.X Ta'lim jarayonida o'qituvchi faoliyatining o'ziga xos xususiyatlari O'zbekistonda fanlararo innovatsiyalar va ilmiy tadqiqotlar jurnali <https://bestpublication.org/index.php/ozf/article/view/1313>
9. A'zamxonov S.X Inson kapitali bilan bog'liq tushunchalarning nazariy tahlili 247-254 -b <https://interonconf.org/index.php/den/article/view/2533>
10. Bahodir o'g'li I. M. Yoshlarning Ijtimoiy Faolligini Oshirish Jamiat Rivojlanishining Omili Sifatida //Miasto Przyszlosci. – 2022. – Т. 24. – С. 521-523.
11. Аликариев Н.С., Аликариева А.Н. Олий таълим сифати менежменти тизимини ривожлантириш концепцияси//“Социология фанлари” ([www.tadqiqot.uz\soci](http://www.tadqiqot.uz\soci)) электрон журнали. №1. – Тошкент, 2020. – Б. 7-18. DOI <http://dx.doi.org/10.26739/2181-9297-2020-1/>